

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YAYLOV YERLARI BO‘YICHA
TASNIFI VA TAVSIFI.**

**CLASSIFICATION AND DESCRIPTION OF PASTURE LANDS OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN.**

**КЛАССИФИКАЦИЯ И ОПИСАНИЕ ПАСТБИЩНЫХ ЗЕМЕЛЬ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.**

Aliqulov Faysal Samandar o‘g‘li¹

¹ *Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi. “Loyiha boshqaruvi (Project Management)”
mutaxassisligi magistranti.*

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston miqyosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning umumiy holati, ayniqsa, yaylov va pichanzorlarning ahamiyati, degradatsiyasi sabablari va ularni tiklash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, respublikada yer resurslaridan samarali foydalanish, monitoring tizimini joriy etish va geobotanik tadqiqotlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy ishlar tahlil qilingan. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida qishloq xo‘jaligi yerlari samaradorligini oshirishga ilmiy va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati.*

Аннотация. *В статье описано общее состояние сельскохозяйственных земель в Узбекистане, особенности значения пастбищ и сенокосов, причины их деградации, а также реализуемые меры по их восстановлению. Также были проанализированы практические работы, направленные на эффективное использование земельных ресурсов, внедрение системы мониторинга и совершенствование геоботанических исследований в республике. Значимость научных и инновационных подходов к повышению эффективности сельскохозяйственных земель в рамках задач, определенных в стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы.*

Abstract. *The article covers the general condition of agricultural lands in*

Uzbekistan, especially the importance of pastures and hayfields, the causes of their degradation and the measures being taken to restore them. It also analyzes practical work aimed at the effective use of land resources in the republic, the introduction of a monitoring system and improving geobotanical research. The importance of scientific and innovative approaches to increasing the efficiency of agricultural lands within the framework of the tasks set out in the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026.

Kalit soʻzlar: *Qishloq xoʻjaligi, yaylovlar, degradatsiya, geobotanik tadqiqotlar, agrotexnologiyalar, monitoring, yer resurslari, oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror rivojlanish.*

Ключевые слова: *Сельское хозяйство, пастбища, деградация, геоботанические исследования, агротехнологии, мониторинг, земельные ресурсы, продовольственная безопасность и устойчивое развитие.*

Key words: *Agriculture, rangelands, degradation, geobotanical research, agrotechnology, monitoring, land resources, food security and sustainable development.*

Kirish. Dunyo miqyosida qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar qariyb 4,7 milliard gektarni tashkil etadi, shundan qariyb 1,6 milliard gektari ekin maydonlari, qolgan uchdan ikki qismi (3,2 milliard gektarga yaqini) doimiy oʻtloqlar va yaylovlardan iborat¹. BMTning Xalqaro Oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti rasmiy maʼlumotlariga koʻra, soʻnggi yigirma yil ichida turli tabiiy-antropogen omillar taʼsirida doimiy oʻtloqlar va yaylovlarning maydoni 6 foizga qisqargan. Dunyo miqyosida degradatsiyaga uchragan yaylovlarni qayta tiklashga qaratilgan turli agrotexnologiyalarni qoʻllash usullari yetakchi oʻrinlarni egallamoqda. Shu sababli yaylov yerlaridagi turli tabiiy-antropogen omillar taʼsirini oldini olish, yaylovlar mahsuldorligini tiklash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://www.fao.org/food-agriculture-statistics/data-release/data-release-detail>. Land statistics and indicators. Global, regional and country trends, 2000-2023.
www.tadqiqotlar.uz

Respublikamizda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, yer tuzish, yer monitoringi va yaylov yerlarida geobotanik tadqiqotlarni tashkil etish, ayniqsa agrar sohada qishloq xo'jaligi yaylov yerlaridan samarali foydalanish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga yerishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish, ilmfan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish» muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan [2]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, yerdan foydalanuvchilar faoliyatiga ilmiy asosda yondoshish orqali yaylov yerlarida hamda agrar soha barqarorligini va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot obyekti va uslublari. Tadqiqot obyekti sifatida toshkent viloyati, Parkent tumanining yaylov yerlari tanlab olingan. Tadqiqotlar uslubi asosini amaliyotda umum qabul qilingan uslublar tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Respublikamiz yaylovlarining holati, ularning tanazzulga uchrashi sabablari va darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik sharoitlarni yaxshilash zarur va yaylovdan barqaror foydalanishni yaratish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Yaylov va pichanzorlarning asosiy maydonlari o'rmon xo'jaliklariga birlashtirilgan. Ushbu hududlarda keyingi 30 yil mobaynida geobotanik tadqiqotlar deyerli amalga oshirilmagan. Yaylov monitoringi ham amalga oshirilmaganligi yaylovlarning holati va ularda bo'layotgan o'zgarishlarni aniq tahlil qiladigan ma'lumot yangilanmagan.

O'zbekiston Respublikasi «Yaylov to'g'risida»gi [1] Qonunining 8-moddasi 8-bandida yaylovlarning monitoringini yuritish alohida belgilab qo'yilgan va bundan ko'zlangan asosiy maqsad doimiy yaylovlar holatini baholab borishdan iboratdir.

2024-yil 1-yanvar holatiga tuzilgan yer hisobotiga ko'ra respublikamizdagi

mavjud tabiiy yaylov va pichanzorlarning umumiy maydoni 21 190,4 ming ga bo'lib, bu Respublika jami yer maydonining 47,2% tashkil etadi, shundan 19 290,1 ming ga suv bilan ta'minlangan yaylov va pichanzorlar hisoblanadi [3; 56-b.].

Yaylov va pichanzorlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha taqsimlanishiga ko'ra, eng kam yaylov maydoni Sirdaryo viloyatida 0,1%, Andijonda 0,1%, Farg'onada 0,1%, eng ko'p yaylov maydonlari Navoiy viloyatida 41,9%, maydoni ko'pligi jihatidan keyingi o'rinda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida 24,8% ni tashkil etadi (1.1-jadval).

1.1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha yaylovlarning taqsimlanishi

Hududlar nomlari	Maydoni, ming ga	Foiz hisobida, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5261,8	24,8
Andijon viloyati	21	0,1
Buxoro viloyati	2550,3	12,0
Jizzax viloyati	702	3,3
Qashqadaryo viloyati	1405,2	6,6
Navoiy viloyati	8887,6	41,9
Namangan viloyati	163,8	0,8
Samarqand viloyati	793,2	3,7
Surxondaryo viloyati	824,5	4
Sirdaryo viloyati	19,9	0,1
Toshkent viloyati	442,5	2,1
Farg'ona viloyati	9,5	0,1
Xorazm viloyati	109,1	0,5
Jami:	21190,4	100

Mamlakatimizda o'simliklar tarqalishiga ko'ra mavjud yaylovlarning dengiz sathidan balandligi hisobga olingan holda to'rtta mintaqaga ajratilgan [4; 45-b.]:

(1.1-rasm)



1.1-rasm. Mamlakatimizda o‘simliklar tarqalish sxemasi.

Xulosa, taklif va tavsiyalar: Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamizdagi mavjud tabiiy yaylov va pichanzorlarning umumiy maydoni 21,2 mln. ga bo‘lib, bu jami yer maydonlarining 47,3% tashkil etadi, shundan 42,9 ming ga sug‘oriladigan bilan ta’minlangan yaylov va pichanzorlar hisoblanadi. Biz tomondan tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Toshkent viloyati viloyati hududi dengiz sathidan 175-400 metrgacha balandlikda joylashgan bo‘lib, yillik yog‘ingarchilik miqdori 100 mm. atrofida kuzatiladi. Shu sababli, viloyat tabiiy suv bilan ta’minlangan yaylov va pichanzorlar maydoni yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 1998-yil 30-aprel. - 74 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar
3. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari holati to‘g‘risida Milliy hisoboti.

– Toshkent: 2024. 56-b.

4. Davronov O.O'. Masofadan zondlash orqali yaylov yerlari monitoringini yuritish usulini takomillashtirish (Toshkent viloyati misolida): Q.x.f.f.d. (PhD) ... diss. avtorefyerati. - Toshkent, 2022. - 45 b.

5. Inamov B.N., Abdusalomov A.A., Jo'rayev A.R. Qishloq xo'jalik ekin yer maydonlarini yo'qlamadan o'tkazish ishlarini tashkil etish. "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning intensiv va innovatsion yechimlari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami. 2024-yil 19-aprel. – Toshkent, 2024. - B. 108-114.

6. Davronov O.O'., Aliqulova Sh.R. Qashqadaryo viloyati yaylov yerlar monitoring tahlili. // O'zbekiston zamini. Respublika maqola. 71-74-b. 2024 yil 1-son.